


**“Qurilish materiallari sanoati” yo‘nalishida ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida
dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Binolarning energiya samaradorligini oshiruvchi nurni tanlab o‘tkazuvchi (Low-E va Cool-Glass nanocomposite) shisha qoplamalari texnologiyasini ishlab chiqish.  	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: past emissiyali (Low-E) qoplamali, yuqori issiqlik izolyatsiyasiga ega bo‘lgan yangi avlod energiya tejamkor oynalarni ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqiladi; yaratiladi: bir kamerali energiya tejamkor shisha paketlar yaratiladi; ikki kamerali energiya tejamkor shisha paketlar yaratiladi; Low-E qoplamali energiya tejamkor oynalar yaratiladi; quyosh nurlarini qaytaruvchi energiya tejamkor oynalar yaratiladi; turar joy, jamoat va sanoat binolari uchun yuqori issiqlik izolyatsiyasiga ega deraza tizimlari yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan energiya tejamkor oynalar akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarda issiqlik o‘tkazuvchanligi, yorug‘lik o‘tkazuvchanligi, quyosh energiyasini o‘tkazish koeffitsienti, mexanik mustahkamligi, atmosfera ta'siriga va uzoq muddatli ekspluatatsiyaga chidamliligi bo‘yicha sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Scopus va Web of Science bazalarida indeksatsiyalangan xalqaro ilmiy jurnallarda hamda mahalliy ilmiy nashrlarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamda tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazuvchi korxonaning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.